INSON KAPITALIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KO'P MEZONLI BAHOLASH MODEL: HUDUDLAR KESIMIDA QIYOSIY TAHLIL	748
Yusubboyeva Dinora Quddat qizi	



INSON KAPITALIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KO'P MEZONLI BAHOLASH MODEL: HUDUDLAR KESIMIDA QIYOSIY TAHLIL

Yusubboyeva Dinora Qudrat qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti dotsenti, PhD.

E-mail: dinorayusubboeva@gmail.com

ORCID: 0009-0001-6058-7208

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston hududlarida inson kapitalidan foydalanish samaradorligini qiyosiy baholash uchun ko'p mezonli model ishlab chiqilgan. Model aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot, ishsizlik darajasi, aholiga nisbatan internet abonentlari, oliy ta'lim bitiruvchilari oqimi va 2020-yilgi mehnat bozori shokidan tiklanish ko'rsatkichlarini birlashtiradi. Autlayerlar ta'sirini kamaytirish maqsadida vaznlangan persentil normallashtirish usuli qo'llanildi. 2024–2025-yillar ma'lumotlari asosida 14 hudud reytingi, kuchli va zaif komponentlar hamda hududiy tiplar aniqlandi. Model inson kapitalining zaxirasini emas, balki uni iqtisodiy natija, bandlik va raqamli muhitga aylantirishning nisbiy samaradorligini baholashga asoslangan. Har bir hudud uchun ta'lim buyurtmasi, raqamli xizmatlar, sanoat kompetensiyalari, mehnat mobilligi va inklyuziv bandlik bo'yicha differensial takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: inson kapitali, samaradorlik, ko'p mezonli baholash, persentil usuli, hududiy reyting, yalpi hududiy mahsulot, ishsizlik, raqamli qamrov, oliy ta'lim.

Аннотация. В статье разработана многокритериальная модель сравнительной оценки эффективности использования человеческого капитала в регионах Узбекистана. Модель объединяет показатели валового регионального продукта на душу населения, уровня безработицы, числа интернет-абонентов по отношению к численности населения, потока выпускников высших учебных заведений и восстановления после шока на рынке труда 2020 года. Для снижения влияния выбросов (outliers) применён метод взвешенной перцентильной нормализации. На основе данных за 2024–2025 годы определены рейтинг 14 регионов, их сильные и слабые компоненты, а также региональные типы. Обосновано, что модель оценивает не запас человеческого капитала, а относительную эффективность его преобразования в экономические результаты, занятость и цифровую среду. Для каждого региона разработаны дифференцированные рекомендации по государственному заказу на образование, развитию цифровых услуг, промышленных компетенций, трудовой мобильности и инклюзивной занятости.

Ключевые слова: человеческий капитал, эффективность, многокритериальная оценка, перцентильный метод, региональный рейтинг, валовой региональный продукт, безработица, цифровой охват, высшее образование.

Abstract. This article develops a multicriteria model for the comparative assessment of the efficiency of human capital utilization across the regions of Uzbekistan. The proposed model integrates gross regional product per capita, unemployment rate, internet subscribers relative to population, the flow of higher education graduates, and recovery indicators following the 2020 labor market shock. To reduce the influence of outliers, a weighted percentile normalization approach is employed. Using regional data for 2024–2025, the study identifies a ranking of all 14 regions, determines their strengths and weaknesses, and classifies regional development types. The model is designed to evaluate not the stock of human capital itself, but the relative efficiency with which human capital is transformed into economic performance, employment outcomes, and digital development. Based on the results, differentiated policy recommendations are proposed for each region regarding education planning, digital services, industrial competencies, labor mobility, and inclusive employment.

Keywords: human capital, efficiency, multicriteria assessment, percentile method, regional ranking, gross regional product, unemployment, digital coverage, higher education.



KIRISH

Inson kapitali hududiy iqtisodiy o'sishning muhim omili bo'lsa-da, uning mavjudligi va undan samarali foydalanish bir xil tushuncha emas. Ta'lim qamrovi va bitiruvchilar soni yuqori bo'lgan hududda mos ish o'rinlari, texnologik infratuzilma va ish beruvchilar talabi yetarli bo'lmasa, kadrlar migratsiyasi yoki malakadan past ishda bandlik kuchayadi. Aksincha, tabiiy resurs yoki kapital sig'imi yuqori tarmoqlar hisobiga aholi jon boshiga YAHM katta bo'lgan hududda mahalliy aholining keng qatlami yuqori unumdor ishga jalb etilmasligi mumkin. Shu bois mintaqaviy siyosat inson kapitali "zaxirasi"ni va undan foydalanish samaradorligini alohida o'lchashi lozim.

Inson resurslarini xalqaro baholashda Jahon bankining HCI ko'rsatkichi O'zbekiston uchun 0,62 deb baholangan [8]. Bu ta'lim va sog'liq sharoitlaridan kelib chiqib, kelajak avlodning ehtimoliy mehnat unumdorligini ifodalaydi. Biroq HCI milliy darajada hisoblanadi va hududdagi ishsizlik, ish o'rni sifati, raqamli infratuzilma, tarmoq ixtisoslashuvi hamda malakadan foydalanishni to'liq ko'rsatmaydi. Shuning uchun "62 foiz" ko'rsatkichini viloyatlar samaradorligi reytingiga to'g'ridan to'g'ri ko'chirish mumkin emas.

O'zbekistonda 2016–2025-yillarda oliy ta'lim qamrovi va bitiruvchilar soni keskin o'sdi, internet abonentlari ko'paydi, ishsizlik pandemiya shokidan keyin pasaydi [12]. Bu o'zgarishlar hududlarning inson kapitali bazasini kengaytirdi, lekin natijalar bir xil emas. Hududlar aholi soni, sanoatlashuv, shaharlashuv, migratsiya, transport va suv resurslari bo'yicha farq qiladi. Bunday sharoitda bitta indikatorga asoslangan reyting xato siyosiy xulosaga olib kelishi mumkin.

Maqolaning maqsadi — ochiq rasmiy ma'lumotlar asosida inson kapitalidan foydalanish samaradorligining ko'p mezonli indeksini ishlab chiqish, O'zbekistonning 14 hududini qiyosiy baholash va indeks komponentlariga mos differensial siyosat choralari asoslash. Tadqiqot obyekti — hududlarda inson kapitali va iqtisodiy natija o'rtasidagi munosabatlar; predmeti — samaradorlikni kompleks o'lchash mezonlari, normallashtirish, vaznlash va interpretatsiya usullaridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

T. Shuls va G. Bekker insonga investitsiyalarning mehnat unumdorligi va daromadga qaytimini nazariy asoslagan [1; 2]. R. Lukas inson kapitali jamg'arilishi hududda bilim tashqi samaralarini yaratib, o'sishni tezlashtirishini ko'rsatgan [3]. Bu nazariyalar inson kapitaliga sarf va iqtisodiy natija o'rtasida bog'liqlik mavjudligini ko'rsatsa-da, hududiy samaradorlikni baholashda ta'lim, bandlik, raqamli muhit va tarkibiy omillarni birlashtirish talab etiladi.

Ko'p mezonli qaror qabul qilish nazariyasi turli o'lchov birligidagi ko'rsatkichlarni yagona bahoga birlashtirish imkonini beradi. T. Saati analitik iyerarxiya usulida mezonlar juft taqqoslanib, ekspert vaznlari aniqlanishini taklif qilgan [4]. K. Xvang va K. Yunning TOPSIS usuli variantlarni ideal va salbiy ideal nuqtaga yaqinligi bo'yicha reyting qiladi [5]. Bu usullar kuchli bo'lsa-da, ekspert subyektivligi, kompensatsiya effekti va autlayerga sezgirlik muammosiga ega. Mazkur tadqiqotda ochiq ma'lumotlar bilan takrorlanuvchanlikni ta'minlash uchun normativ vazn va persentil normallashtirish qo'llandi.

OECD mintaqaviy ko'rsatkichlarni talqin qilishda joyga mos yondashuv, funksional hududlar va ko'p darajali boshqaruvni hisobga olishni tavsiya qiladi [6]. BMT Taraqqiyot dasturining inson rivojlanishi yondashuvi iqtisodiy daromadni ta'lim va sog'liq imkoniyatlari bilan birga ko'radi [7]. Jahon banki HCI ta'lim-sog'liq zaxirasini baholasa [8], ushbu maqola hududiy iqtisodiyot doirasida shu zaxiraning iqtisodiy natijaga aylanishini o'lchashga qaratilgan.

I.S. Abdullayev mintaqaviy iqtisodiy tizimni optimal tartibga solishda tarmoqlar, resurslar va hududiy boshqaruv o'rtasidagi muvozanatni ta'kidlaydi [9]. Uning fikridan kelib chiqib, inson kapitali samaradorligini tarmoq ixtisoslashuvidan ajratib baholash mumkin emas. F.R. Madrahimovanning mediasavodxonlik va raqamli kompetensiyalar haqidagi qarashlari raqamli muhitdan samarali foydalanish uchun infratuzilma bilan birga axborotni tahlil qilish qobiliyati zarurligini ko'rsatadi [10]. Q.X. Abdurahmonov mehnat bozori, bandlik va inson taraqqiyoti o'rtasidagi bog'liqlikni asoslaydi [11].

Adabiyotlar tahlilidan kelib chiqadigan metodologik xulosa shundaki, inson kapitalidan foydalanish samaradorligi kamida to'rtta natijani birlashtirishi kerak: iqtisodiy qaytim, mehnatga jalb etilish, yuqori malaka oqimi va texnologiyadan foydalanish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda inson kapitalidan foydalanish samaradorligini baholashda qiyosiy taqqoslash, ko'p mezonli baholash, persentil normallashtirish va statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Qiyosiy taqqoslash usuli orqali O'zbekistonning 14 ta hududi aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot, ishsizlik darajasi, internet qamrovi, oliy ta'lim bitiruvchilari oqimi hamda mehnat bozorining tiklanish ko'rsatkichlari bo'yicha o'zaro solishtirildi. Ko'p



mezonli baholash usuli yordamida mazkur ko'rsatkichlar yagona integral indeksga birlashtirilib, hududlarda inson kapitalidan foydalanish samaradorligi baholandi hamda hududiy farqlar va ustuvor rivojlanish yo'nalishlari aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Baholash birligi sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 viloyat va Toshkent shahri — jami 14 hudud qabul qilindi. Ma'lumotlar 2025-yilga tegishli aholi, aholi jon boshiga YAHM, ishsizlik va internet abonentlari, shuningdek, so'nggi to'liq mavjud bo'lgan 2024-yilgi oliy ta'lim bitiruvchilari ma'lumotlari asosida tuzildi [12]. 2020-yil ishsizligi pandemiya shoki nuqtasi sifatida olinib, 2025-yilgacha tiklanish nisbati hisoblandi.

Ko'rsatkichlarni tanlashda uch tamoyil qo'llandi: nazariy asoslanganlik, hududlar bo'yicha taqqoslanuvchanlik va muntazam ochiq e'lon qilinishi. Real mehnat unumdorligi, median ish haqi, malakaga mos bandlik, o'quv natijalari va sog'liq ko'rsatkichlari metodologik jihatdan muhim, ammo bir xil kesim va yilda ochiq mavjud emasligi sababli joriy modelga kiritilmadi. Shu bois indeks "to'liq inson kapitali samaradorligi" emas, balki ochiq ma'lumotlarga asoslangan qiyosiy proksi sifatida talqin qilinadi.

1-jadval.
Ko'p mezonli baholash modeli ko'rsatkichlari

Belgi va mezon	O'lchov	Iqtisodiy mazmun	Vazn	Yo'nalish
G — aholi jon boshiga YAHM	ming so'm, 2025	inson kapitali va boshqa resurslarning iqtisodiy qaytimi	0,25	ijobiy
U — ishsizlik	%, 2025	mehnat resursidan joriy foydalanish	0,20	salbiy
D — internet intensivligi	100 aholiga abonent	raqamli xizmat va masofaviy ish muhiti	0,20	ijobiy
E — bitiruvchilar oqimi	10 ming aholiga, 2024	yuqori malakali kadrlar taklifi	0,20	ijobiy
R — shokdan tiklanish	(U2020–U2025)/U2020	mehnat bozori rezilyentligi	0,15	ijobiy

$$KMS_i = 100 \times (0,25P(G_i) + 0,20P(-U_i) + 0,20P(D_i) + 0,20P(E_i) + 0,15P(R_i))$$

Bu yerda:

KMS_i — i-hududning ko'p mezonli samaradorlik balli;

P — hududning tegishli ko'rsatkich bo'yicha persentil o'rni. Ishsizlik salbiy mezon bo'lgani uchun past qiymat yuqori persentil oladi.

Ball 0–100 oralig'ida qiyosiy pozitsiyani ifodalaydi; u absolyut iqtisodiy samara yoki sababiy ta'sir koeffitsiyenti emas.

Persentil usulini tanlashning sababi — Toshkent shahrida internet abonentlari va Navoiy viloyatida aholi jon boshiga YAHM kabi autlayerlarning mavjudligidir. Min–max usulida bitta juda yuqori qiymat boshqa hududlarning farqini sun'iy qisqartiradi. Z-ball esa normal taqsimot taxminiga va manfiy qiymatlarni talqin qilish muammosiga duch keladi. Persentil reyting nisbiy o'rinni barqaror ko'rsatadi, lekin ikki hudud o'rtasidagi mutlaq masofani yashiradi. Shuning uchun reyting bilan birga dastlabki qiymatlar ham jadvalda beriladi.

Vaznlar iqtisodiy natijaga 0,25, joriy bandlik, raqamli muhit va ta'lim oqimiga 0,20 dan, shokdan tiklanishga esa 0,15 berilgan holda belgilandi. Bu normativ tanlovdir. Keyingi bosqichda AHP ekspert so'rovi, entropiya usuli yoki principal component analysis orqali vaznlar sezgirliги tekshirilishi kerak (2-jadval).

2-jadval.
O'zbekiston hududlarida inson kapitalidan foydalanish samaradorligining qiyosiy reytingi

O'rin	Hudud	KMS ball	YAHM/aholi, ming so'm	Ishsizlik, %	Internet /100 aholi	Bitiruvchi /10 ming	Tiklanish, %
1	Navoiy	86,8	152 238,2	4,2	109,0	52,4	55,3
2	Toshkent sh.	84,3	116 747,3	4,0	268,1	175,5	50,0
3	Buxoro	73,6	41 399,1	4,7	86,9	51,8	55,7
4	Xorazm	67,9	30 713,5	4,7	91,1	47,6	56,9



5	Samarqand	60,0	28 001,8	4,7	83,2	41,1	57,3
6	Jizzax	52,5	34 116,8	4,9	80,8	47,9	55,5
7	Andijon	52,1	30 852,1	4,8	79,8	40,1	56,0
8	Sirdaryo	51,8	38 137,2	5,0	98,5	46,9	54,5
9	Toshkent vil.	45,0	57 480,2	4,8	75,1	38,6	54,3
10	Qoraqalpog'iston R.	41,4	26 489,5	5,0	88,3	71,6	52,4
11	Farg'ona	39,6	26 603,6	4,9	77,9	51,3	55,0
12	Surxondaryo	36,6	22 223,4	4,9	69,4	48,5	55,9
13	Namangan	29,3	27 020,6	5,0	82,6	39,6	52,8
14	Qashqadaryo	29,1	26 856,9	4,9	69,2	34,7	55,9

Hisob-kitob natijalariga ko'ra, birinchi guruhni Navoiy viloyati, Toshkent shahri, Buxoro va Xorazm viloyatlari tashkil etdi. Navoiy viloyatining yuqori o'rni aholi jon boshiga YAHM, nisbatan past ishsizlik, internet intensivligi va 2020-yilgi shokdan tiklanishning qo'shma ta'siri bilan izohlanadi. Toshkent shahri iqtisodiy va raqamli ko'rsatkichlarda yetakchi, bitiruvchilar oqimi ham yuqori; shu bilan birga, poytaxtning ma'muriy va aglomeratsion afzalliklari uni oddiy viloyat bilan to'g'ridan to'g'ri qiyoslashda ehtiyotkorlikni talab qiladi.

Buxoro viloyati barcha mezonlarda nisbatan muvozanatli pozitsiyani egallaydi. Xorazm viloyati aholi jon boshiga YAHM bo'yicha yetakchi emas, ammo ishsizlikning pasayishi, internet intensivligi va aholiga nisbatan bitiruvchilar oqimi uni ko'p mezonli reytingda yuqoriga ko'taradi. Bu natija indeksning asosiy ilmiy ma'nosini ochadi: inson kapitali samaradorligi faqat iqtisodiy hajm emas, balki kadrlar taklifi, bandlik va raqamli muhitning birgalikdagi holatidir.

O'rta guruhga Samarqand, Jizzax, Andijon, Sirdaryo, Toshkent viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi kirdi. Ularda bir yoki ikki kuchli komponent boshqa zaif mezon bilan muvozanatlashadi. Masalan, Toshkent viloyatida iqtisodiy baza nisbatan kuchli, biroq aholiga nisbatan internet va bitiruvchilar ko'rsatkichi poytaxtdan past. Qoraqalpog'iston Respublikasida bitiruvchilar oqimi yuqori bo'lsa-da, aholi jon boshiga YAHM va ishsizlik komponenti umumiy ballni cheklaydi. Sirdaryoda aholi kamligi sababli ayrim intensiv ko'rsatkichlar yaxshi, ammo yuqori malakali kadrlar oqimi pastroq.

Quyida qiyosiy guruhni Farg'ona, Surxondaryo, Namangan va Qashqadaryo viloyatlari tashkil etdi. Bu hududlarni "inson kapitali past" deb baholash noto'g'ri: reyting tanlangan beshta proksi bo'yicha foydalanish muhitini ko'rsatadi. Farg'ona va Namanganda aholi va mehnat taklifi katta bo'lgani uchun bitta ish o'rni yoki bitiruvchining aholiga nisbati pasayadi. Qashqadaryo va Surxondaryoda yosh aholi, migratsiya va qishloq bandligi kabi omillar ko'proq ta'sir qiladi. Demak, past ball investitsiyani qisqartirish emas, balki aniq komponent bo'yicha qo'shimcha siyosat zarurligini anglatadi.

SEZGIRLIK TAHLILI VA MODEL CHEKLOVLARI

Model natijasi vaznlarga bog'liq. Agar YAHM vazni 0,25 dan 0,15 ga kamayib, ta'lim va raqamli mezonlarga taqsimlansa, kapital sig'imi yuqori hududlarning ustunligi qisqarib, bitiruvchilar va internet intensivligi yuqori hududlar ko'tarilishi mumkin. Aksincha, iqtisodiy qaytimga 0,35 berilsa, Navoiy viloyati va Toshkent shahrining ustunligi yanada kuchayadi. Shuning uchun reyting "yagona haqiqat" emas, balki belgilangan siyosiy-ilmiy ustuvorliklar asosidagi ssenariydir.

Ko'rsatkichlar o'rtasida kompensatsiya mavjud: juda yuqori YAHM past bitiruvchilar ko'rsatkichini qoplashi mumkin. Agar siyosatda minimal shartlar muhim bo'lsa, nokompensatsion qoida joriy qilinishi kerak: masalan, ishsizlik yoki raqamli qamrov belgilangan chegaradan yomon bo'lsa, umumiy reyting qancha yuqori bo'lishidan qat'i nazar, hudud "xavf guruhi"da qoladi. Bu usul inson kapitali rivojlanishida hech bir muhim blokni nol darajada qoldirmaslikka yordam beradi.



2024-yil bitiruvchilari 2025-yil aholisiga nisbatan hisoblandi. Bir yillik siljish reytingni katta o'zgartirmasligi mumkin, lekin ilmiy shaffoflik uchun qayd etildi. Internet abonentlari foydalanuvchilarni emas, shartnomalarni ifodalaydi. YAHM joriy narxlarda bo'lib, tarmoq narxlari va resurs rentasidan ta'sirlanadi. Ishsizlik norasmiy bandlik va malakaga mos bo'lmagan ishni ko'rsatmaydi. Shu sababli indeksni ma'muriy qaror uchun yagona asos emas, balki tashxisning birinchi bosqichi sifatida ishlatish kerak.

ILMIY YANGILIK VA AMALIY QO'LLASH MEXANIZMI

Tadqiqotning birinchi ilmiy yangiligi inson kapitalidan foydalanish samaradorligini ta'lim va sog'liq zaxirasidan ajratib, hududiy iqtisodiy qaytim, bandlik, raqamli muhit, yuqori malaka oqimi va shokdan tiklanishni birlashtirgan kategoriya sifatida ifodalashdan iborat. Ikkinchi yangilik — autlayerlar mavjud bo'lgan kichik hududlar to'plami uchun vaznlangan persentil modelining asoslanishidir. Uchinchi yangilik — reyting natijasining hududiy tipologiya va komponentga mos siyosat choralarga to'g'ridan to'g'ri bog'langanidir.

Amaliy mexanizmida har bir hudud uchun "umumiy ball — komponent ball — tuman kesimi — chora-tadbir — natija indikator" zanjiri shakllanadi. Respublika darajasida metodika va ma'lumot standarti belgilanadi; viloyat darajasida komponentlar tashxisi va maqsadli dastur tuziladi; tuman darajasida ish beruvchi, ta'lim muassasasi va mahalla bilan loyiha portfeli shakllantiriladi. Yil yakunida reytingdan ko'ra komponentlarning yaxshilanishi va hududlararo tafovutning qisqarishi asosiy natija bo'ladi.

Model byudjet resurslarini mexanik ravishda yuqori balli hududga berish uchun emas, balki past komponentni aniqlash uchun xizmat qiladi. Masalan, YAHM yuqori, bitiruvchilar intensivligi past hududda dual ta'lim va mahalliy kadrlar tayyorlash; internet yuqori, ishsizlik ham yuqori hududda raqamli ko'nikmalar va masofaviy ish; bitiruvchilar yuqori, YAHM past hududda startaplar, xizmatlar eksporti va kadrlar buyurtmasi ustuvor bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston hududlarida inson kapitalidan foydalanish samaradorligini baholash iqtisodiy qaytim, bandlik, raqamli muhit va yuqori malakali kadrlar tayyorlash ko'rsatkichlarini birlashtiruvchi ko'p mezonli yondashuv asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Taklif etilgan model hududlarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, inson kapitalidan foydalanish darajasini qiyosiy baholash hamda hududiy rivojlanish siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi.

Birinchidan, inson kapitalidan foydalanish samaradorligini baholashning ko'p mezonli modeli hududlarning iqtisodiy, ijtimoiy va raqamli rivojlanish darajasini kompleks baholash imkonini beradi hamda inson kapitaliga oid boshqaruv qarorlarini qabul qilishning ilmiy asoslarini mustahkamlaydi.

Ikkinchidan, inson kapitalidan samarali foydalanish uchun ta'lim tizimini mehnat bozori ehtiyojlari bilan muvofiqlashtirish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ularning ishga joylashishini rag'batlantirish va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Uchinchidan, hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi va mavjud resurs salohiyatini hisobga olgan holda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan differensial yondashuvni qo'llash, innovatsion faoliyatni kengaytirish hamda mehnat unumdorligini oshirish hududlar raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, inson kapitalidan foydalanish samaradorligini muntazam monitoring qilish, ko'p mezonli baholash natijalarini hududiy rivojlanish strategiyalari va davlat dasturlarini shakllantirishda qo'llash, byudjet mablag'larini ustuvor yo'nalishlarga samarali taqsimlash hamda investitsiya qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

Nihoyat, taklif etilgan ko'p mezonli baholash modeli inson kapitalidan foydalanish samaradorligini oshirish, hududlar o'rtasidagi rivojlanish tafovutlarini qisqartirish va mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvdan respublika va hududiy darajadagi strategik dasturlarni ishlab chiqish hamda inson kapitali siyosati samaradorligini baholashda foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Schultz, T.W. Investment in Human Capital // *The American Economic Review*. – 1961. – Vol. 51, No. 1. – P. 1–17. <https://www.jstor.org/stable/1818907>
2. Becker, G.S. *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education*. – 3rd ed. – Chicago: University of Chicago Press, 1993. <https://press.uchicago.edu/ucp/books/book/chicago/H/bo3684031.html>
3. Lucas, R.E. On the Mechanics of Economic Development // *Journal of Monetary Economics*. – 1988. –



- Vol. 22, No. 1. – P. 3–42. [https://doi.org/10.1016/0304-3932\(88\)90168-7](https://doi.org/10.1016/0304-3932(88)90168-7)
4. Saaty, T.L. *The Analytic Hierarchy Process*. – New York: McGraw-Hill, 1980. <https://doi.org/10.21236/ADA214804>
 5. Hwang, C.L., Yoon, K. *Multiple Attribute Decision Making: Methods and Applications*. – Berlin: Springer, 1981. <https://doi.org/10.1007/978-3-642-48318-9>
 6. OECD. *OECD Regional Outlook 2023: The Longstanding Geography of Inequalities*. – Paris: OECD Publishing, 2023. <https://doi.org/10.1787/92cd40a0-en>
 7. United Nations Development Programme (UNDP). *Human Development Report 2025*. – New York: UNDP, 2025. <https://hdr.undp.org/content/human-development-report-2025>
 8. World Bank. *Human Capital Country Brief: Uzbekistan*. – Washington, DC: World Bank, 2023. <https://thedocs.worldbank.org/en/doc/64e578cbeaa522631f08f0cafba8960e-0140062023/related/HCI-AM23-UZB.pdf>
 9. Abdullayev, I.S. *Mintaqaviy iqtisodiy tizimni optimal tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish*. – Urganch, 2023. <https://rektor.urdu.uz>
 10. Madrahimova, F.R. *Oliy ta'lim tashkilotlari talabalarida mediasavodxonlikni rivojlantirish*. – Chirchiq, 2022. <https://api.ziynet.uz/uploads/books/7007/63a4641ccc45c.pdf>
 11. Abdurahmonov, Q.X. *Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot*. – Toshkent: Fan, 2019.
 12. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *Doimiy aholi soni*. <https://api.siat.stat.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>